



# 2-bosqich 1-semestr

16-mavzu: Zavqiy hayoti va ijodi

Adabiyot

Abdukadirova M.M



TIIAME

## Reja:

- 1.Zavqiy hayoti haqida ma'lumot.
- 2.Zavqiy ijodi haqida ma'lumot.
- 3.Hajviy asarlari haqida.



ARXIV.UZ

Ubaydulla usta solix o'g'li Zavqiy  
(1853-1921)

Lurik sherk satrasi va yunnor usiasini zavqiy

Shoir Ubaydulla Usta Solih o'g'li Zavqiy Muqimiy, Furqatlarning taniqli zamondoshi va hamkoridir. Zavqiy («zavq» so'zidan) 1853 yilda Qo'qon shahrining Shayxon dahasida mayda hunarmand oilasida gug'ilgan. U boshlang'ich makgabni tugatgach,.. tog'asi Muhammad Siddiq yordamida Qo'qondagi «Madrasai oliy», «Madrasai Chalpak» madrasalarida tahsil oladi.

ARXIV.UZ




TILAME

- “Aqliy hujum” savollari
- 1.Zavqiy “Sayohatnoma”sining Muqimiy  
“Sayohatnoma”sidan farqi nimada?
- 2.Zavqiyning adabiy merosi qanday?
- 3.Uning adabiy merosi bizga qanday yetib kelgan?



Zavqiy (taxallusi; asl ism-sharifi Ubaydullo Solih o‘g‘li)

(1853 — Qo‘qon — 1921) — o‘zbek shoiri. Qo‘qondagi «Madrasai oliy» va «Madrasai chalpak»da tahlil olgan (1870—74). Mahsido‘zlik bilan shug‘ullangan. Ma’lum muddat mirzalik qilgan, Xo‘jand, Samarqand, Buxoro, Toshkent, O‘sh, Andijon, Marg‘ilon shaharlarida bo‘lgan. Tog‘asi Muhammad Siddiq bilan Madinani ziyorat qilgan. 1903- yil Qo‘qonga qaytgan. Zavqiy mumtoz o‘zbek adabiyoti an’alarini davom ettirgan, Qo‘qon adabiy muhitining Muqimiy, Furqat, Nodim, Rojiy kabi namoyandalari bilan ijodiy hamkorlik qilgan.



**Moddiy ahvoli og'irligidan o'qishini tashlab, kosiblik-maxsido'zlik qilishga majbur bo'ladi. Shoir mirzolik vazifasida ishlab, Samarqand, Buxoro, Marg'ilon, Andijon, O'sh, Namangan, Xo'jand va Toshkent shaharlarida bo'ladi. XIX asrning 90-yillarida oilaviy hayotida baxtsizliklar bo'ladi: otasi va ikki ukasi vafot etadi, xotini Hojibibining ko'zları ojiz bo'lib qoladi.**

Zavqiy Muqimiy bilan birga Shahrixon, Asaka orqali O'shga, Andijonga safar qiladi. 1900 yilda haj safariga otlangan tog'asi shoirni ham o'zi bilan birga olib ketadi. Uch yil mobaynida u Kavkaz, Kichik Osiyo, Misr va Arabiston mamlakatlarida bo'ladi. 1903 yilda Zavqiy Qo'qonga qaytib keladi.



# IJODI



TILAME

Asarlari nomi	Janri
“Ajab zamona”	
“Qahatchilik”	SHE’R
“Zamona kimniki”	
“Veksel”	
“Shohimardon xotirasi”	
“Ta’rifi kalish”	
“Otim”	HAJVIYA
“Fonus”	
“Pashshalar”	



TIIAME

Zavqiyning g‘azal, muxammas, muvashshahlari («Aylab keling», «Radifi Zavqiy» va boshqa)da o‘zi yashagan muhit va tuzum, mehnat ahlining ahvoli tasvirlangan. U turmush alam-iztiroblari, hijron azobiga visol umidi, vafodorlik, sadoqat tuyg‘ularini qarama-qarshi qo‘yadi («Yuzingni ko‘rsatib avval», «Bodai vasling» va boshqa), kishilarni turmush go‘zalliklaridan zavqlanishga, uni sevishga chorlaydi. Zavqiyning bir qancha she’rlari («Kajdor zamona», «Ajab zamona», «Abdurahmon shayton» va boshqa)da mustamlaka tuzumidagi ijtimoiy tengsizlik,adolatsizlik, chor ma’muriyati himoyasida bo‘lgan ayrim nopol amaldorlarning kirdikorlari fosh etiladi.



## YUZINGNI KO‘RSATIB

- Yuzingni ko‘rsatib avval o‘zungga bandalar qilding,  
Yana ko‘nglum olib yuz noz birla xandalar qilding,  
Jamoling partavin solib, ajoyib jilvalar qilding,  
Masihdek bir boqishda murda jismim zindalar qilding  
«Senga men to qiyomat oshno», deb va’dalar qilding.  
Qani menga vafoi ahd qilg‘oning, guli g‘uncha,  
Qani bulbul sifat oldingda turgonim ochilg‘uncha,  
Qani bizlarg‘a hamsuhbat raqiblardek tong otquncha,  
Sani dardi firoqing aytib-aytib yig‘lay o‘lguncha,  
Na deb ey mehri yo‘q, men xasta qulg‘a g‘amzalar qilding.  
Deb erding: kecha-kunduz men seni yoring bo‘lurman deb,  
Tikandek suhbatingda bir guli noring bo‘lurman deb,  
Jafoni senga oz aylab, vafodoring bo‘lurman deb,  
Umidim ko‘p edi, yolg‘iz xaridoring bo‘lurman deb,  
Ajabkim xalq ichinda bulhavas deb shikvalar qilding.  
Manga mardumlar aydi: berma ko‘ngul bevafo yora,  
Seni ovora aylar, ahdi yolg‘onlar, sitamkora,  
Vafosi yo‘q, ishonma so‘ziga, sho‘xi jafokora,  
Dedimkim, nosiho in’om ko‘pdur oshiqi zora,  
Netay, ey bemuruvvat, oxiri sharmondalar qilding.



TILAME



TIIAME

Zavqiyning «Muncha ko‘p» radifli hamda «Ajab zamondur, ahbob, bosh qotib qoldi» misrasi bilan boshlanuvchi muxammaslari 19-asr boshlari she’riyatidagi eng o‘tkir ijtimoiy asarlari jumlasiga kiradi. Zavqiy ijodiy merosida o‘zbek qishloqlarining ahvoli, dehqonlar hayoti mavzui ham katta o‘rin tutadi («Yangi Qo‘rg‘on qishlog‘i», «Suv janjali», «Shohimardon sayohati» va boshqa). Bu asarlar Muqimiyning «Sayohatnama»si ta’sirida yozilgan. Zavqiy Muqimiyning hajvchilik yo‘lini davom ettirib, o‘zbek adabiyotida hajviy yo‘nalish taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi («Obid mingboshi haqida hajv» va boshqa).  
Zavqiyning «Voqeai qozi saylov»

(1909—10), «Qahatchilik» (1916) kabi asarlarida ijtimoiyadolatsizlik fosh etiladi, xalqning zulmga qarshi namoyishlari aks ettiriladi.



TIIAME

«Ajab ermas» radifli muxammasi XX asr boshlari o‘zbek she’riyatida muhim hodisa bo‘ldi. Bunda shoir mustamlaka asoratida ezilayotgan yurtning baxtli kelajagi haqida fikr yuritdi. Ijtimoiy hayotdagi ayrim nosozliklar, kishilar faoliyatidagi salbiy hollar ustidan bir qator she’rlari («Ta’rifi kalish», «Otim», «Fonus», «Sigirim», «Pashshalar» va boshqa)da zaharxanda bilan kuladi.

Shoирning ishqiy g‘azal va muxammaslari o‘sha davrlardanoq xalq hofizlari tomonidan kuyga solinib, ijro etilgan («Yor kelur zamona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay?!», «Kulbam aro, ey maxliqo, bir yo‘l xirom aylab keling» va boshqa). Zavqiyning she’rlari turli bayoz, majmua, vaqtli matbuot hamda og‘zaki manbalar orqali bizgacha yetib kelgan. Qo‘qon shahridagi bir mahalla, qishloq, maktab va ko‘chaga Zavqiy nomi berilgan.



# NASIHAT



TILAME

Jahonda kansuxan kim bo‘ldi, asrori nihon bo‘ldi,  
Kimiki so‘zlatdi ko‘p, bilki rasvoyi jahon bo‘ldi.

Nazokat orturay desang, misoli g‘uncha xomush bo‘l,  
Nadinkim og‘zini to ochdi gul, bargi xazon bo‘ldi.

Chamanda arg‘uvondek surat oro bo‘lmag‘ing xub yo‘q,  
Pisharda mevasiz sharmandadur, sirri ayon bo‘ldi.

Dema mashhur bo‘lmoq yaxshi, bug‘doy danasi pinhon,  
Daraxti qildi javlon, sarg‘ayib oxir samon bo‘ldi.

Birodar, ol meni(ng) pandimni, o‘z qadringni sindirma,  
Kishi uz izzatini bilmadi, oxir yomon bo‘ldi.

Agar izzat talabsan kamnamolig‘ orzusin qil,  
Qayu ajnos bisyor o‘lsa sudi yo‘q, ziyon bo‘ldi.

Sadaflar ko‘p og‘iz ochmak bilan ko‘ksi bo‘lur xoli,  
Ki ba‘zisi labin kam vo qilib durri yagon bo‘ldi.

Ey Zavqiy, xasta og‘zing kam ochib, ibrat ko‘zing ochg‘il  
Ajabkim qo‘l yaqoda yurgudek turfa zamon bo‘ldi.



# MUNCHA KO‘P



TIIAME

Zolim falak bisotida ozor muncha ko‘p,  
Inson sharaflı nomi bila xor muncha ko‘p,  
Har ko‘chalarda qashshoq ila zor muncha ko‘p,  
Tarhi jahon binosida badkor muncha ko‘p,  
Xo‘qand aro baloga giriftor muncha ko‘p.  
Hamrozu do‘sst topilsayu jonlar fidosidur,  
Orzu shukim: kamina ko‘ngil muddaosidur,  
Xush suhbati majruh dilim davosidur,  
Maqdami ko‘zuma ayni shifo xoki posidur,  
Yo‘q andog‘ anisim, dunyoda ag‘yor muncha ko‘p.  
Nodon sevar zamona, dod ilkidin netay,  
Boshim olib fig‘on ila yo bir tomon ketay,  
Ushbu diyori masxarani emdi tark etay,  
Tinmay shikoyat ila yomonga raqam bitay,  
Jumla falokat ahlig‘a g‘amxor muncha ko‘p.



TILAME

# Uyga vazifa:

Zavqiy g‘azallaridan yodlab  
kelish.